

USTRUSHONA – ARAB XALIFALIGI DAVRIDA

Qobilov Sardor Ixtiyor o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Ustrushonaning Arab xalifaligi davridagi siyosiy va harbiy ahamiyati yoritiladi. Unda hududning xalifalik tarkibiga kirishi, mahalliy boshqaruv tizimi hamda islom dinining asta-sekin tarqalishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va Ustrushonaning strategik o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona mamlakati, Arab xalifaligi, Xuroson noibi Salim ibn Ziyod, Muhallab ibn Sufra, Qutayba ibn Muslim, So‘g‘d ixshidlari Tarxun va G‘urak, Kovus va uning o‘g‘illari Haydar, Fadl, Xasha, Rashid, Tohiriylar va Somoniylar davlati.

Tarixdan ma‘lumki, arablarning Movarounnahr viloyatlariga uyushtirgan hujumlari mazmun-mohiyat va xronologik jihatdan ikki davrga bo‘linadi. 654-705-yillar mobaynida bo‘lib o‘tgan dastlabki davr harbiy to‘qnashuvlari tom ma‘noda bosqinchilik urushlari bo‘lib, bu davrda arablarning asosiy maqsadi boylik orttirish, xalifalik xazinasini to‘ldirish, mahalliy hukmdorlarning harbiy qudratini sinash uchun bo‘lgan. 705-yilda Xuroson noibi etib Qutayba ibn Muslim tayinlangandan keyin arablar tomonidan Movarounnahrda uyushtirilayotgan harbiy harakatlar istilochilik ko‘rinishini oladi.

Ikkinchi davrdagi kurashlar zamirida Movarounnahrni Arab xalifaligi tarkibiga qo‘shib olish siyosati asosiy maqsad qilib qo‘yiladi. Movarounnahr viloyatlarini butunlay o‘z tasarruflariga olish uchun arablar deyarli bir asr kurash olib boradilar va nihoyat o‘z niyatlarini VIII asr oxiri IX asr boshlarida ruyobga chiqaradilar. Ustrushona afshinlari bu davrda Arab istilosiga qarshi

ilmiy –amaliy anjuman

mudofaa janglarini, xalifalikning tashqi siyosatiga nisbatan munosib diplomatik faoliyatni olib borganlar. Shu sababli, Ustrushona Movarounnahrning boshqa o'lkalaridan farqli ravishda to'liq Arab xalifaligi tarkibiga eng oxirgi viloyatlardan biri sifatida 822-yilda harbiy kuch orqali kiritilgan[Пардаев М., Ғофуров Ж. 317-318 б.].

Rasmiy tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ustrushona hududida arablarning ilk marotaba paydo bo'lishi Xuroson noibi Salim ibn Ziyod (680-683) davrida, xalifalikning Movarounnahrqa uyushtirgan uchinchi talonchilik yurishi davriga to'g'ri keladi. Samarqandga etib kelgan Salim ibn Ziyod qo'shinni yordamchilari ixtiyoriga topshirib, uni Xo'jand yo'nalishi tomon safarbar qiladi. Manbalar xabariga ko'ra, bu qo'shin Ustrushona hududi orqali Xo'jandga etib keladi va shahar ostonasida mahalliy harbiy kuchlar tomonidan qattiq mag'lubiyatga uchratiladi.

Arablarning Ustrushonaga ikkinchi yurishlari Muhallab ibn Sufra (697-701) qo'mondonligida sodir bo'ladi. Xo'jandgacha borgan ushbu qo'shin shahar va uning atrofidagi mavzelaarni talon-taroj qiladi. Xurosonning navbatdagi noibi Yazid ibn Muhallab (701-704) va uning o'g'li Muhallad davrida Buttam (Burgar va Mastchoh) viloyati istilo qilinadi. Lekin oradan ko'p o'tmay Buttam aholisi qo'zg'olon ko'taradi va arablar tomonidan qoldirilgan garnizonni haydab yuboradi. Al-Balazuriyning xabar berishicha, Qutayba ibn Muslim (704-715) davrida lashkarboshi Jahma ibn Zahr qo'shinlari tomonida Buttam qaytadan bo'ysundiriladi, u yerdan katta miqdordagi boylik, jumladan oltindan yasalgan sanamlar tashib ketiladi.

Tog'li hududda joylashgan Burgar va Mastchoh rustoqlariga qarashli qishloq manzillari – qal'a va qo'rg'onlarning chiqish qiyin bo'lgan qoyalar ustida joylashganligi, vohalarning tog'lar bilan o'rab olinganligi, yo'llardagi qiyinchiliklar mahalliy aholiga o'zlarining mustaqilliklarini uzoq vaqt saqlab qolishlariga, arab qo'shinlari g'olib kelib o'z hukmronliklarini o'rnatganlaridan keyin ham bu hukmronlik ramziy ma'noda ekanligiga sabab bo'ladi[Герматов

H.H. c. 133.]. Bu holatlar esa Ustrushonada Arab xalifaligiga tobelikni imkon qadar kuchsizlantirishga, nisbatan mustaqillikni IX asrga qadar saqlab qolishga imkoniyat yaratgan.

Ustrushonashunoslikning ayrim masalalariga doir Sug‘d-Ustrushona munosabatlari ilk o‘rta asrlarning aynan shu davrlari tarixiga taalluqlidir. Xususan, Qutayba ibn Muslim 709-yilda o‘tkir hiyla bilan qudratli mudofaa istehkomlariga ega Buxoro shahrini zabt etganidan so‘ng, voqealarni bunday tus olishidan qo‘rqib ketgan Sug‘d ixshidi Tarxun Qutayba bilan to‘qnashuvdan qochib unga tinchlik sulhi tuzishni taklif qiladi va buning evaziga bir zaylda o‘lpon to‘lash majburiyatini oladi. 710-yilda Tarxun navbatdagi o‘lponni to‘lagandan so‘ng mamlakat ichkarisida unga nisbatan norozilik kuchayib ketadi va sug‘d zodogonlari uni taxtdan chetlashtiradilar, uning o‘rniga G‘urak (710-737) taxtga o‘tiradi [www.wikipedia.org. internet sayti]. G‘urakning Sug‘d taxtiga o‘tirishini ba‘zi mutaxassislar tasodifiy va hatto noqonuniy bo‘lgan, deb hisoblashadi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida G‘urakning Ustrushona afshinlari sulolasi bilan yaqin qondoshligi ro‘kach qilinadi [Пардаев М., Фофуров Ж. 319 б.].

Abu Xafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy qalamiga mansub “Al-Qand fix zikri ulamo Samarqand” (“Samarqand ulamolari zikriga doir qanddek shirin kitob”) kitobda Sug‘d hukmdori G‘urakning asli kelib chiqishi turkiylardan ekanligi qayd etilgan. Ushbu asar ma‘lumotiga ko‘ra, G‘urakning avlodlaridan biri hadisshunos ulamo bo‘lgan, uning shajarasi quyidagi tartibda berilgan: Abu Husayn Ubaydulloh ibn al-Marzbon ibn Turkash Taqiy ibn Kasiyr ibn Tarxun ibn Banojur ibn G‘urak [Нажмиддин ан-Насафий. 127 б.]. Demak, mazkur shajara G‘urak bilan qo‘shib hisoblaganda yetti avlod vakilidan tarkib topgan. O‘rnatilgan tartibga ko‘ra, har bir avlod orasidagi o‘rtacha vaqtni 25-30 yil qilib oladigan bo‘lsak, demak G‘urakdan keyingi qariyb 200 yillik tarixga ega mazkur shajarada uning avlodlari qayd etilgan.

Yozma manbalar ma'lumotiga ko'ra, Qutayba arablarning navbatdagi yurishini Ustrushonaga 713 yilda, Farg'onaga "harbiy yurish" uyushtirgan paytda amalga oshirgan. 713-714 yillarda Qutayba bir necha marta Choch va Farg'onaga hujum qilgan va har safar g'alaba qozongan. Manbalarning xabariga ko'ra, bu davrda u Ustrushonaning nafaqat tekislik hududlarida joylashgan aholi manzillariga, balki tog', tog' oldi hududidagi shahar, qishloqlarga ham hujum qilgan. Xususan, ibn Havqal va al-Istahriyning e'tirofiga qaraganda, Qutayba ibn Muslim Mink qal'asida qora libos kiygan odamlar bilan jang qilgan, al-Afshinni qamal qilgan.

Akademik A. Muhammadjonovning yozishicha, "...o'zga yurtlarni bosib olish, talash, mazlum xalqlardan o'lpon va soliqlar undirib olish hamda harbiy kuch sifatida ulardan o'z istilolarida foydalanish kabi o'ta zo'ravonlik va bosqinchilik siyosatiga asoslangan ummaviylar sulolasi Arab xalifaligidek ulkan davlatni boshqarish uchun mutlaqo yaramay qolgan edi. Mamlakatdagi umumiy vaziyat ummaviylar hukmronligining barham topishini talab qilmoqda edi...." [Мухаммаджонов А. 80-81 б].

Shu tariqa VIII asrning 40-yillarida ummaviylar hukmronligiga qarshi kurashni Abu Muslim o'z qo'liga oladi va abbosiylar sulolasi foydasiga 751-yilda davlat to'ntarishini amalga oshirib xalifalikning taniqli shaxsiga aylanadi.

Bu paytda Ustrushonada abbosiylar xalifaligi tarixidagi mashhur lashkarboshlardan biri Haydar al-Afshinning otasi Kovus hukmdor edi. Arab istilochilari Kovusni xalifalik bilan Ustrushona o'rtasida tuzilgan shartnomani buzganlikda, al-Ma'mun xazinasiga kam xiroj to'laganlikda ayblaydilar. Shuningdek, bu paytda Ustrushona afshini xonadoni o'g'illari o'rtasida ham turli nizolar yuzaga kelgan edi. Manbalarning guvohlik berishicha, Kovusning to'rtta – Haydar, Fadl, Xasha, Rashid ismli o'g'illari bo'lib, ular bir-birlari bilan dushmanlik holatida edilar [Пардаев М., Фопуров Ж. 326-327 б.]. Kovusning ikkinchi o'g'li Fadlni qaynotasi, afshin saroyi ish boshqaruvchisi, taniqli zodagon Taradis o'z panohiga olib valiahdlikka uning nomzodini suradi.

ilmiy –amaliy anjuman

Barcha sa'y-harakatlari bilan kuyovi Fadlni qo'llab-quvvatlagan Taradis Haydarning sha'nini erga uruvchi bo'lmag'ur, bo'hton va ig'volarni ham tarqatadi. Bundan darg'azab bo'lgan Haydar jahl ustida Taradisga poytaxt Bunjikatning Kunb darvozasi oldida hujum qiladi va uni o'ldiradi. Bu voqeadan so'ng Haydar Xuttal hukmdori Hoshim ibn Muxavvar al-Xuttaloni huzuriga qochib ketadi va xat orqali bo'lgan voqealarni otasi Kovusga tushuntirib uni o'z tomoniga og'dirib olmoqchi bo'ladi. Otasidan ijobiy mazmundagi javob xatini olmagandan so'ng, Haydar xalifalik poytaxti Bag'dodga jo'naydi.

Arxeolog N. Negmatovning yozishicha, u yerda Haydar xalifa Ma'mun qabulida bo'ladi, unga Ustrushona mamlakatining engilmas, istilo qilib bo'lmas o'lka ekanligi haqidagi fikrlarni afsonaligini tushuntiradi va 822-yilda qisqa tog' yo'li orqali Ahmad ibn Abu Xalid al-Ahval boshchiligidagi katta qo'shinni o'z vatani istilosi uchun boshlab keladi. Bundan xabar topgan Kovus turklardan yordam so'rab Fadlni jo'natadi. Lekin turklar etib kelgunga qadar arab lashkarlari poytaxt Bunjikat mudofaa devorlari oldida paydo bo'ladilar. Afshin Kovus kutilmagan tezlikda poytaxtni qamalga olgan al-Ahval qo'shinlari oldida ojiz qoladi va taslim bo'ladi. Bu voqealardan xabar topgan Fadl tunda turklar lagerini tashlab cho'lga qochadi va arablar qarorgohiga keladi. Manbalarda turklarni suvsiz cho'lda chanqab halok bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Bizning fikrimizcha, bu ma'lumotlar tarixiy haqiqatdan ancha yiroq bo'lib, birinchidan, turklar aslida cho'l-dasht xalqi, chorvadorlar bo'lib, ular bu hududning qayerida suv zahiralari bor yoki yo'qligini yaxshi bilishgan. Ikkinchidan, Sirdaryoning ikki qirg'og'i bilan tutashib ketgan cho'l-dasht hududlarida Qoraqum yoki Qizilqum singari katta masofalarda joylashgan qaqroq mavzelar deyarli yo'q [Пардаев М., Фофуров Ж. 328-330 б.]. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, turk lashkarlarini Fadlning qochib ketganidan so'ng bunday halokatga uchrashini mantiqqa, tarixiy haqiqatga zid, deb hisoblaymiz.

Ushbu holat arab tilli mualliflar tomonidan soxtalashtirilgani ehtimoldan xoli emas.

Arablarga taslim bo'lgan Kovus va Fadl Bag'dodga jo'natiladi va u erda ikkalasi ham islom dinini qabul qiladi. Kovus Ustrushona hukmdori sifatida o'z o'rnini saqlab qoladi. Uning valiahdi qilib Haydar al-Afshin tayinlanadi. U xalifa qo'shinida xizmatda qoladi va al-Mu'tasim (833-842) davrida amir al-mo'minning mashhur, bosh sarkardasi bo'lib etishadi [Pardayev M., Toshboyev F. 112-116-b.].

Ustrushonaning tamomila zabt etilishi xalifalikning Ma'mun davridagi tashqi siyosati uchun shunchalik ahamiyatga molik bo'ldiki, at-Tabariyning yozishicha, bunday muvaffaqiyatdan mamnun bo'lgan Xuroson noibi tohiriy Talxa lashkarboshi Ahmad ibn Abu Xamid al-Ahvalga 2 million, uning kotibi Ibrohim ibn al-Abbosga 500 ming dirham va yana behisob sovg'alar in'om qiladi [Пардаев М., Гофуров Ж.332 б.].

Ustrushona mamlakati, ayniqsa, uning tog'li mavzellarida joylashgan qal'a qo'rg'onlarda yashovchi aholi Qutayba ibn Muslim davrida boshlangan istilochilik harakatlaridan keyingi yuz yil davomida ham o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Ustrushona afshinlari arab lashkarboshilari, Xuroson noiblari bilan kelishuvchilik siyosatini olib boradilar. Xalifalik qo'shinlari hujumini qaytarishga kuchlari yetmay qolgan paytda sulh tuzishga, tovon puli, turli sovg'alar in'om qilish orqali, sirdan o'z tobeliklarini tan olgan holda, taxtlarini, hukmron afshinlar xonadonini saqlab qolishga erishdilar. Islom dinini qabul qilish jarayoni ham ustrushonaliklarda boshqa viloyatlar aholisiga nisbatan ancha sust kechdi.

Ustrushona 822-yilga qadar Arab xalifaligiga bir zaylda hech qachon xiroj to'lamagan. Islomni qabul qilmagan ustrushonaliklardan jon solig'i, jizya olingani haqida ham hech qanday ma'lumotlar yo'q. Bunga sabab, qachonki arablar Buxoro, Samarqand kabi markaziy shaharlardagi aholi xonadonlarining muayyan qismida muqim yashab, u erdagi iqtisodiy va ma'naviy hayot tizginini

ilmiy –amaliy anjuman

o'z qo'llariga olganlaridan keyingina mahalliy xalqning ruhoniylar turmush tarzini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Natijada, jizyaga tortiladigan yoki undan ozod bo'ladigan aholi tarkibi aniqlangan. Tadqiqotchilar fikricha, 822-yildan boshlab Ustrushona afshinlari sulolasi o'z mustaqilligini qo'ldan boy berdi va xalifalikning nominal tarkibiy qismi Tohiriylar davlati tasarrufidagi tobe mamlakatga aylandi. Ustrushona shu davrdan boshlab barcha arabzabon tarixchi, geograflarning asarlaridan munosib o'rin ola boshlaydi. U Xuroson va Movarounnahrni birlashtirib boshqargan Tohiriylar davlatining siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim strategik ahamiyatga ega viloyatlardan biriga aylanadi. Shu davrdan boshlab Ustrushona Tohiriylarga muntazam ravishda 50 ming (shundan 48 ming muhammadiy, 2 ming musayyabiy) dirham xiroj to'lay boshlagan [Pardayev M., Toshboyev F. 116-118-b.].

Movarounnahrda barpo etilgan mustaqil, markazlashgan Somoniylar davlati davrida Ustrushonada hukmronlik qilgan afshiniylar sulolasi 893-yilda tugatiladi. Keyingi davrlar yozma manbalarida qayd etilgan Ustrushona atamasi mustaqil davlatni emas, balki muayyan davlatning bir viloyati nomi sifatida qo'lanila boshlagan. Shunday qilib, Ustrushona Somoniylar va undan keyingi davlatlar tarkibida viloyat maqomini oladi [Пардаев М., Гофуров Ж. 332-334 б.].

Xulosa qilib aytganda, Ustrushonaning qadimgi va ilk o'rta asrlar davridagi siyosiy hamda madaniy taraqqiyoti uzluksiz va ko'p bosqichli tarixiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. VI–VIII asrlarda Ustrushona Turk xoqonligi ta'sir doirasiga kiradi. Turk xoqonligi davrida hudud strategik jihatdan muhim chegara va aloqa mintaqasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Mahalliy hukmdorlar xoqonlikka qaram bo'lish bilan birga, ichki boshqaruvda muayyan mustaqillikni saqlab qolgan. Bu davrda turkiy etnik va madaniy omillar yanada kuchayib, Ustrushonaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. VIII asrning birinchi yarmidan boshlab esa Ustrushona Arab xalifaligi bilan to'qnash keladi. Dastlabki bosqichda arablar tomonidan uyushtirilgan harbiy

yurishlar talonchilik xarakteriga ega bo'lgan bo'lsa, keyinchalik hudud asta-sekin xalifalik siyosiy tizimiga kiritiladi. Shunga qaramay, Ustrushona uzoq vaqt davomida mahalliy afshinlar boshqaruvi ostida nisbiy avtonom maqomini saqlab qoladi. Arablar davrida islom dini kirib kelib, asta-sekin mahalliy aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin egallay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи (IV асрдан XVI аср бошларигача). Тошкент. 2004.
2. Нажмиддин ан-Насафий. Самарқандия.//Араб тилидан Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли таржимаси. ЎМЭ. Тошкент. 2001.
3. Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по X в.нэ. Москва. 1957.
4. Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент. 2016.
5. Pardayev M., Toshboyev F., Ustrushonaning qadimgi davr davlatchilik tarixi. Toshkent. 2020.
6. www.wikipedia.org. internet sayti